



TASVIRIY SAN'AT VA IJODIY FAOLIYAT INTEGRATSIYASI ASOSIDA TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Xo'jamqulova Parizod Ozod qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Tasviriy san'at mutaxassisligi

2-bosqich magistranti

E-mail: parizodxujamkulova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada tasviriy san'at va ijodiy faoliyat integratsiyasi asosida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi ilmiy-nazariy va metodik jihatdan yoritilgan. Tadqiqotda tasviriy san'at mashg'ulotlarini ijodiy faoliyat bilan uyg'unlashtirishning talabalarning kasbiy tayyorgarligi, ijodiy fikrlashi, amaliy ko'nikmalari, mustaqil qaror qabul qilishi va refleksiv faoliyatini rivojlantirishdagi imkoniyatlari tahlil qilinadi. Integratsiyalashgan ta'lim yondashuvi asosida talabalarning nazariy bilimlarini amaliy-ijodiy faoliyat bilan bog'lashga yo'naltirilgan metodik yondashuv ishlab chiqiladi. Mazkur metodika ijodiy topshiriqlar, amaliy mashg'ulotlar, muammoli vaziyatlar, mustaqil faoliyat va refleksiv tahlilning o'zaro uyg'unligiga asoslanadi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati oliy ta'lim muassasalarida tasviriy san'atga oid fanlarni o'qitish jarayonini kompetensiyaviy va ijodiy yondashuvlar asosida takomillashtirish imkoniyatlari bilan belgilanadi.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, ijodiy faoliyat, integratsiya, kasbiy kompetensiya, ijodiy kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarni faqat nazariy bilimlar bilan qurollantirish yetarli bo'lmay, ularning egallagan bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llay olishi, mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashishi, muammoli vaziyatlarda maqbul yechim topishi hamda o'z faoliyatini tahlil qila olishini ta'minlash muhim pedagogik vazifalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu sababli ta'lim jarayonini kompetensiyaviy, faoliyatga yo'naltirilgan va ijodiy yondashuvlar asosida tashkil etish zamonaviy oliy ta'limning muhim talablaridan hisoblanadi.

Tasviriy san'at ta'limi mazmuni nazariy bilim, amaliy ko'nikma, badiiy-estetik idrok va ijodiy faoliyatning o'zaro uzviyligi bilan xarakterlanadi. Tasviriy san'at mashg'ulotlarida talaba rang, shakl, kompozitsiya, proporsiya, perspektiva, badiiy ifoda vositalari kabi nazariy tushunchalarni o'zlashtirish bilan bir qatorda ularni amaliy faoliyatda qo'llaydi. S.F. Abdirasilovning



“Tasviriy san’at o’qitish metodikasi” darsligida tasviriy san’atni o’qitishning maqsad va vazifalari, ta’lim mazmuni, rangshunoslik, natyurmort, badiiy bezak grafikasi, haykaltaroshlik, tasviriy faoliyatning metodik asoslari, mashg’ulotlarni rejalashtirish va tasviriy san’at asarlarini badiiy tahlil qilish masalalari yoritilgan [1]. Mazkur yondashuv tasviriy san’at mashg’ulotlarida nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog’lash muhimligini ko’rsatadi.

Tasviriy san’atning pedagogik imkoniyati shundaki, bunda talaba o’zlashtirgan bilimni tayyor javob yoki nazariy bayon shaklida emas, balki muayyan badiiy faoliyat jarayonida namoyon etadi. Kompozitsion yechimni tanlash, ranglar uyg’unligini belgilash, shakl va mazmun o’rtasidagi bog’liqlikni aniqlash, tasviriy vositalardan foydalanish va badiiy g’oyani vizual ifodalash talabaning mustaqil fikrlashi va ijodiy qaror qabul qilishini talab etadi. Shu jihatdan tasviriy san’at mashg’ulotlari kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun katta metodik imkoniyatlarga ega.

Pedagogik jarayonni samarali tashkil etishda ta’lim texnologiyalarining o’rni ham alohida ahamiyat kasb etadi. N.N. Azizxo’jayeva pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat masalalarini yoritishda ta’lim jarayonini maqsadga muvofiq tashkil etish, pedagogik faoliyatni takomillashtirish va ta’lim oluvchilarning faol ishtirokini ta’minlashga e’tibor qaratadi [2]. Ushbu yondashuv tasviriy san’at ta’limida ham talabani faqat tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki o’quv-ijodiy jarayonning faol subyekti sifatida shakllantirish zarurligini ko’rsatadi.

O’Q. Tolipov va M. Usmonboyevaning pedagogik texnologiyalarga bag’ishlangan tadqiqotida pedagogik texnologiya ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, shaxsni rivojlantirish, tarbiyalash va shakllantirishga xizmat qiluvchi yaxlit jarayon sifatida talqin qilinadi [3, 23–24-b.]. Mualliflar pedagogik texnologiyaning asosiy maqsadlaridan biri ta’lim jarayonini takomillashtirish va o’quvchi-talabaning mustaqilligini ta’minlash ekanligini ta’kidlaydi [3, 23–24-b.]. Bu fikr tasviriy san’at va ijodiy faoliyat integratsiyasi asosida tashkil etiladigan mashg’ulotlarda talabaning mustaqil izlanishi va ijodiy faoliyatiga alohida o’rin berish zarurligini asoslaydi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi tasviriy san’at va ijodiy faoliyat integratsiyasi asosida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo’naltirilgan metodikani nazariy va metodik jihatdan asoslashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun tasviriy san’at ta’limining metodik imkoniyatlarini aniqlash, ijodiy faoliyatning kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi o’rnini belgilash, integratsiyalashgan mashg’ulotlarni tashkil etishning pedagogik shartlarini ishlab chiqish va talabalarning ijodiy hamda amaliy faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlarni asoslash ko’zda tutiladi.



Tasviriy san'at ta'limining metodik asoslarini o'rganishda S.F. Abdirasilovning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Muallifning darsligida tasviriy san'at ta'limining maqsad va vazifalari, boshlang'ich tasviriy san'at asoslari, rangshunoslik, natyurmort, badiiy bezak grafikasi, haykaltaroshlik, tasvirlarning metodik asoslari hamda tasviriy san'at asarlarini badiiy tahlil qilish masalalari izchil yoritilgan [1]. Mazkur yondashuv tasviriy san'at ta'limining nazariy va amaliy tarkibiy qismlarini o'zaro bog'liq holda tashkil etish zarurligini ko'rsatadi. Ayniqsa, tasviriy faoliyatni rejalashtirish, mashg'ulotlarni tashkil etish va yakuniy faoliyatni tahlil qilishga oid metodik yondashuvlar talabalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tasviriy san'at mashg'ulotlarining mazmunini faqat texnik ko'nikmalarni shakllantirish bilan cheklash talabani ijodiy imkoniyatlaridan to'liq foydalanishga imkon bermaydi. Badiiy faoliyat jarayonida talaba o'z g'oyasini shakllantirishi, tasviriy vositalarni tanlashi, kompozitsion yechim ishlab chiqishi va o'z qarorini asoslay olishi kerak. Shuning uchun tasviriy san'atni o'qitishda reproduktiv mashqlar bilan bir qatorda ijodiy va muammoli topshiriqlardan foydalanish muhimdir.

N.N. Azizxo'jayevaning pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahoratga oid qarashlari ta'lim jarayonida pedagogning metodik faoliyati, ta'lim oluvchining faolligi va ta'limni samarali tashkil etish masalalarini asoslashga xizmat qiladi [2]. Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, tasviriy san'at mashg'ulotlarida o'qituvchi talabani ijodiy faoliyatini bevosita boshqaruvchi emas, balki uning mustaqil izlanishiga yo'naltiruvchi pedagogik subyekt sifatida faoliyat yuritishi lozim.

O'Q. Tolipov va M. Usmonboyeva pedagogik texnologiyaning mohiyatini shaxsni rivojlantirish, tarbiyalash va shakllantirishga yo'naltirilgan yaxlit pedagogik jarayon sifatida talqin qiladi [3, 23–24-b.]. Ularning fikrlarida ta'lim jarayonining maqsadga yo'naltirilganligi, ta'lim oluvchining mustaqilligi va ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish masalalari muhim o'rin egallaydi [3, 23–24-b.]. Bu esa tasviriy san'at va ijodiy faoliyatni integratsiyalashda nafaqat mazmunni, balki ta'lim maqsadi, metodlari, faoliyat shakllari va kutilayotgan natijalarni ham yagona tizim sifatida loyihalash zarurligini ko'rsatadi.

R.J. Ishmuhamedov, A.A. Abduqodirov va A. Pardaevning innovatsion pedagogik texnologiyalarga oid qarashlari ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish, ta'lim oluvchilarning faolligini oshirish va o'qitish samaradorligini ta'minlash masalalarini qamrab oladi [4]. Tasviriy san'at mashg'ulotlarida ham innovatsion metodlardan foydalanish



talabalarining ijodiy faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rag'batlantirish va amaliy faoliyatini takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin.

J.G'. Yo'ldoshev va S.A. Usmonovning pedagogik texnologiya asoslariga bag'ishlangan ishida ta'lim jarayonini maqsad, mazmun, metod, vosita va natija o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik asosida tashkil etish masalalari yoritilgan [5]. Mazkur yondashuv tasviriy san'at ta'limida ham mashg'ulotning barcha komponentlarini yagona maqsadga bo'ysundirish zarurligini ko'rsatadi.

B.S. Abdullayevaning fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslariga bag'ishlangan tadqiqoti esa turli fanlar mazmunini o'zaro bog'lash va ta'lim jarayonida integrativ aloqalarni ta'minlash masalalari nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega [6]. Tasviriy san'at va ijodiy faoliyat integratsiyasida ham mazkur yondashuvdan foydalanish mumkin. Bunda integratsiya alohida faoliyatlarni oddiy tarzda qo'shish emas, balki ularning umumiy pedagogik maqsad, mazmun, metod va natija asosida uyg'unlashtirilishini anglatadi.

Tahlil qilingan ilmiy-metodik manbalar shuni ko'rsatadiki, tasviriy san'at ta'limida nazariya va amaliyot birligi, pedagogik texnologiyalardan foydalanish, talabaning mustaqil faoliyatini tashkil etish va fanlararo aloqadorlikni ta'minlash kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning muhim metodik shartlari hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda tasviriy san'at va ijodiy faoliyat integratsiyasining pedagogik imkoniyatlarini aniqlash uchun nazariy tahlil, ilmiy-metodik adabiyotlarni o'rganish, taqqoslash, umumlashtirish, tizimlashtirish va pedagogik modellash metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasining asosini kompetensiyaviy, integrativ, faoliyatga yo'naltirilgan, ijodiy va refleksiv yondashuvlar tashkil etadi.

Tasviriy san'at va ijodiy faoliyat integratsiyasiga asoslangan metodikada ta'lim jarayoni nazariy bilimlarni egallashdan boshlanib, amaliy faoliyat, ijodiy topshiriq, mustaqil ijodiy mahsulot yaratish, o'z ishini taqdim etish va refleksiv tahlil qilish bosqichlari orqali davom etadi. Bunday izchillik talabaning nazariy bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo'llashiga, mustaqil qaror qabul qilishiga va o'z faoliyatini baholashiga imkon beradi. Mazkur yondashuvda tasviriy san'at mashg'ulotining asosiy maqsadi faqat ma'lum bir rasm yoki kompozitsiyani yaratishga o'rgatish emas, balki badiiy faoliyat jarayonida talabaning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdan iborat bo'ladi. Shu sababli o'quv topshiriqlari talabaning kuzatishi, tahlil qilishi, taqqoslashi, ijodiy g'oya ishlab chiqishi, amaliy yechim tanlashi va o'z faoliyatini baholashini talab qiladigan tarzda ishlab chiqilishi lozim.

Nazariy-metodik tahlil asosida tasviriy san'at va ijodiy faoliyat integratsiyasi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun keng pedagogik imkoniyatlarga ega ekanligi aniqlandi. Birinchi navbatda, mazkur



integratsiya nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lashga imkon beradi. Talaba rangshunoslik, kompozitsiya, perspektiva yoki tasviriy ifoda vositalariga oid bilimlarni faqat nazariy jihatdan o'zlashtirib qolmay, balki ularni konkret ijodiy vazifani bajarish jarayonida qo'llaydi. Bu esa bilimning amaliy qiymatini oshiradi.

Ikkinchidan, integratsiyalashgan faoliyat talabani mustaqil ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Tasviriy san'at mashg'ulotlarida bir xil topshiriqning bir nechta badiiy yechimga ega bo'lishi talabani tayyor namunani takrorlashdan ko'ra o'z g'oyasini ishlab chiqishiga sharoit yaratadi. Natijada talaba badiiy qaror qabul qilish, o'z tanlovini asoslash va ijodiy faoliyat natijasini takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Uchinchidan, integratsiya jarayonida amaliy-badiiy kompetensiyalar bilan bir qatorda kasbiy, kommunikativ va refleksiv kompetensiyalar ham rivojlanadi. Talaba ijodiy ishni yaratish jarayonida amaliy ko'nikmalarni egallaydi, o'z ishini boshqalarga taqdim etish orqali kommunikativ ko'nikmalarini namoyon qiladi, yakuniy natijani tahlil qilish orqali esa refleksiv kompetensiyasini rivojlantiradi.

To'rtinchidan, ijodiy faoliyatni muammoli vaziyatlar bilan uyg'unlashtirish talabani mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Masalan, kompozitsiyaning markaziy g'oyasini aniqlash, ranglar nisbatini belgilash, tasviriy vositalarni tanlash yoki badiiy mazmunni vizual shaklda ifodalash jarayonlarida talaba turli muqobillarni tahlil qiladi va o'z qarorini tanlaydi. Bunday faoliyat kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarining rivojlanishiga xizmat qiladi. Mazkur metodik yondashuvda o'qituvchining roli ham o'zgaradi. O'qituvchi tayyor badiiy yechimni beruvchi emas, balki talabani ijodiy izlanishini tashkil etuvchi va yo'naltiruvchi subyekt sifatida faoliyat yuritadi. Bu pedagogik texnologiya ta'lim oluvchining mustaqilligini ta'minlash va shaxsiy rivojlanishiga xizmat qilish haqidagi nazariy qarashlari bilan uyg'unlashadi [3, 23–24-b.].

Tasviriy san'at ta'limining metodik xususiyatlari ham bunday yondashuvni qo'llab-quvvatlaydi. Abdiraslov tomonidan tasviriy san'atni o'qitish metodikasiga oid masalalarning keng yoritilgani, jumladan, mashg'ulotlarni rejalashtirish, ko'rgazmali vositalardan foydalanish, tasviriy faoliyatni tashkil etish va badiiy asarlarni tahlil qilishga e'tibor qaratilgani [1] tasviriy san'at ta'limining izchil metodik tizim asosida tashkil etilishi zarurligini ko'rsatadi. Integrativ yondashuv nuqtayi nazaridan qaralganda, tasviriy san'at va ijodiy faoliyatning o'zaro bog'lanishi talabani turli ko'nikmalarini bir vaqtning o'zida ishga solishga imkon beradi. B.S. Abdullayeva tomonidan fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik



asoslari bo'yicha olib borilgan tadqiqot ham ta'lim jarayonida aloqadorlik va integratsiyaning metodik imkoniyatlarini ko'rsatadi [6]. Shundan kelib chiqib, tasviriy san'at ta'limida ijodiy faoliyatni alohida qo'shimcha mashg'ulot sifatida emas, balki fan mazmunining tabiiy tarkibiy qismi sifatida tashkil etish maqsadga muvofiq.

Tasviriy san'at va ijodiy faoliyat integratsiyasi asosida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lash, ijodiy fikrlashni rivojlantirish, mustaqil qaror qabul qilish, badiiy-amaliy ko'nikmalarni takomillashtirish va refleksiv faoliyatni shakllantirishga yo'naltirilgan yaxlit pedagogik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot davomida o'rganilgan ilmiy-metodik manbalar tasviriy san'at ta'limida nazariya va amaliyot birligi, pedagogik texnologiyalardan foydalanish, talabani mustaqil faoliyatini tashkil etish va integrativ yondashuvni qo'llash muhimligini ko'rsatdi [1–6]. Taklif etilayotgan metodikaning asosiy xususiyati shundan iboratki, talabani faoliyati tayyor badiiy namunani takrorlash bilan cheklanmaydi. U mustaqil g'oya ishlab chiqadi, badiiy yechimni tanlaydi, amaliy faoliyatni tashkil etadi, ijodiy mahsulot yaratadi, o'z ishini taqdim etadi va yakunda o'z faoliyatini refleksiv tahlil qiladi. Shu tariqa tasviriy san'at mashg'uloti nafaqat badiiy ko'nikmalarni shakllantirish, balki kasbiy kompetensiyalarni kompleks rivojlantirish vositasiga aylanadi. Mazkur yondashuv oliy ta'lim muassasalarida tasviriy san'atga oid fanlarni o'qitish jarayonini takomillashtirish, talabalarning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish va ularni kelgusidagi kasbiy faoliyatga tayyorlash uchun metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Kelgusida ushbu metodikaning samaradorligini tajriba-sinov ishlari orqali tekshirish, talabalarning kasbiy kompetensiyalari rivojlanish darajasini diagnostika qilish hamda natijalarni statistik jihatdan tahlil qilish tadqiqotning keyingi bosqichi sifatida belgilanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurasulov, S.F. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi: darslik. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. — 232 b. ISBN: 978-9943-10-731-1.
2. Azizxo'jayeva, N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat: o'quv qo'llanma. — Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. — 160 b. ISBN: 978-9943-563-70-4.
3. Tolipov, O'.Q., Usmonboyeva, M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari: o'quv qo'llanma. — Toshkent: Fan, 2006. — 261 b. ISBN: 5-648-03428-5.
4. Ishmuhammedov, R.J., Abduqodirov, A.A., Pardaev, A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. — Toshkent: Iste'dod, 2008. — 180 b.



5. Yo'ldoshev, J.G'., Usmonov, S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. — Toshkent: O'qituvchi, 2004. — 104 b.
6. Abdullayeva, B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari (ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlardagi akademik litseylarda matematika o'qitish misolida): pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent, 2006. — 49 b.